

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA  
KIRUVCHILAR UCHUN**

**SAVOLLAR KITOBI**

ABITURIYENT: \_\_\_\_\_  
F.I.O. Imzo

**ABITURIYENT DIQQATIGA!**

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan boyicha 36 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'i raqami bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

**Savollar kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to'ldirilgan yoki to'ldirilmagan va imzosi qo'yilmagan hollarda e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.**

**Kitob tipi: 32**

**FANLAR:**

*Blok 1: Ona tili va adabiyot*

*Blok 2: Biologiya*

*Blok 3: Kimyo*

Savollar kitobi raqami: **1701306**

Toshkent – 2017

## ONA TILI VA ADABIYOT

1. Uyushiq aniqlovchi mavhum otlar bilan ifodalangan gapni belgilang.  
A) *Bolajon o'zbek xalqi voqea tagida haqiqat va o'zbekona fe'l-atvor borligiga ishonadi.*  
B) *Iste'dod egasi o'zi yaratgan ma'naviy va moddiy boylikdan o'zi ham bahramand bo'lishga haqli.*  
C) *Insonning yoshlikda yo'l qo'ygan xatosi, bilib-bilmay qilgan gunohi yoshi ulg'ayganida o'z natijasini beradi.*  
D) *Qattiq qo'rqish va vahimaning zo'ridan oyoq-qo'lim bo'shshib, tilim kalimaga kelmay qoldi.*
2. Unim yo'q, bunim yo'q.  
Uyimda unim yo'q.  
Ishimda unim yo'q.  
Aytishga unim yo'q.  
Ushbu parchada o'zaro shakldosh bo'lgan so'zlar qaysi turkumlarga mansub?  
A) *1 o'rinda ot, 2 o'rinda olmosh*  
B) *2 o'rinda ot, 1 o'rinda olmosh*  
C) *2 o'rinda ot, 1 o'rinda olmosh, 1 o'rinda fe'l*  
D) *2 o'rinda ot, 2 o'rinda olmosh*
3. Payt holi shakllantirishga sizni qilgan yordamchi so'z turkumiga oid so'z qatnashgan gapni toping.  
A) *Havo issiq bo'lgani uchun tun salqinida yo'lga chiqidi.*  
B) *Yo'lovchilar bu sahroga qadam qo'yishlari bilan safar yanada og'irlashdi.*  
C) *Faqat kechalar she'r yozganimda barcha tashvishni unutaman.*  
D) *Shu payt Alishening oilasi va bir necha kishi kirib, unga salom berishdi.*
4. Berigan hukmlardan qaysi bir(lar)i noto'g'ri?  
1) yangi va hozir so'zlarida urg'u birinchi bo'g'inga tushganda o'zaro sinonimlik hosil qila oladi; 2) yangi va hozir so'zlarida urg'u ikkinchi bo'g'inga tushganda o'zaro sinonimlik hosil qila oladi; 3) yangi so'zida birinchi bo'g'inga, hozir so'zida ikkinchi bo'g'inga tushganda ushbu so'zlar o'zaro sinonimlik hosil qila oladi; 4) yangi so'zida urg'u ikkinchi bo'g'inga, hozir so'zida birinchi bo'g'inga tushganda ushbu so'zlar o'zaro sinonimlik hosil qila oladi  
A) 2, 3, 4 B) 1 C) 1, 4 D) 1, 2, 3
5. Qaysi gapda qatnashgan o'zaro shakldosh qo'shimchalar urg'u olish yoki olmasligiga ko'ra farq qiladi?  
1. Kechgi taom payti tog'da ko'chki bo'lganligi haqida xabar berildi. 2. Bu yigitcha o'zini oqlashga tirnoqcha nasos topolmadi.  
3. Qat – qatgina qatlama, aqling bo'lsa, tashlama. 4. Qadr don kundaligim, senga hech bir so'z yozmaganimga ancha bo'ldi, mana, bugun qalamdon ichidagi qalamimga yana qo'l uzatdim.  
A) 1, 2, 3, 4 B) 2, 3, 4 C) 2, 3 D) 1, 4
6. Bola qoshida ota- onaning so'zi-yu ishi bir bo'lmasligi ularning o'z izzat va hurmatlari ildiziga o'z qo'llari bilan urilgan o'tkir boltadir.  
Ushbu gapda ishtirok etgan yordamchi so'z turkumlari haqida noto'g'ri hukmi aniqlang.  
A) *Bog'lovchilar uyushiq aniqlovchilarni bog'lab kelgan.*  
B) *Bir o'rinda vazifadosh, bir o'rinda sof ko'makchi ishtirok etgan.*  
C) *Bir o'rinda vazifadosh, bir o'rinda sof bog'lovchi ishtirok etgan.*  
D) *Yordamchi so'z turkumlarining har biriga oid birliklar qatnashgan.*
7. Amu bilan Sirdan suv ichgan,  
Zarafshonni loylatib kechgan  
Chavandozlar bordir bu elda.  
Parchadagi uyushgan bo'laklar haqidagi noto'g'ri fikrni aniqlang.  
A) *Uyushgan aniqlovchilar holga tobelangan.*  
B) *Uyushiq sifatlovchi aniqlovchi qatnashgan.*  
C) *Uyushiq o'rin holi qatnashgan.*  
D) *Uyushgan hollar aniqlovchiga tobelangan.*
8. Qaysi javobdagi juftlik o'zaro bir umumiy ma'noni ifodalay oladi?  
A) *tanti-mard* B) *adl-tik* C) *ahl-totuv* D) *qisim-siqim*
9. Berilgan paronim juftiga ega omonim so'zlarni aniqlang.  
1) **shoh**; 2) **asr**; 3) **soch**; 4) **rux**; 5) **sanat**; 6) **tus**  
A) 3, 4, 5, 6 B) 2, 4 C) 1, 2, 4 D) 1, 2, 4, 5
10. Urush ko'plarning yostig'ini quritdi.  
Berilgan gapda ma'no ko'chishning qaysi turi mavjud?  
A) *metafora* B) *sinekdoxa* C) *vazifadoshlik* D) *metonimiya*
11. Daraxtni gullata bilishgina emas, balki undan mo'l va shirin hosil yetkazib berish ham san'atdir.  
Ushbu gapda qatnashgan yordamchi so'z turkumiga xos birliklar haqidagi noto'g'ri fikri aniqlang.  
A) *yuklamalarning ikki ma'noviy turi qatnashgan*  
B) *yuklamalar har xil gap bo'lagi vazifasini bajarigan so'zlarga qo'shimcha ma'no yuklagan*  
C) *mazmuniy munosabat ifodalashga ko'ra bog'lovchining ikki turi qatnashgan*  
D) *sof va vazifadosh bog'lovchi qatnashgan*
12. Ravishning bir ma'no turiga oid so'zlar berilgan javobni aniqlang.  
A) *oldinda, olg'a, bir lahzada*  
B) *hamisha, zo'rg'a, kecha-kunduz*  
C) *qasddan, noiloj, jinday*  
D) *birdan, yayov, tasodifan*
13. Bir kuni chol bechora qo'li titrab osh suzilgan kosasini tushirib sindirdi, buni ko'rgan kelin nodon so'zlar aytib uning ko'nglini vayron qildi. Shundan keyin yigit otasini hovlining bir chekkasidagi zax uyga ko'chirdi.  
Ushbu parchada qatnashgan fe'llar haqida berilgan to'g'ri fikrni aniqlang.  
A) *orttirma nisbatdagi fe'l 2 o'rinda qatnashgan*  
B) *o'timli-o'timsizlik ma'nosi nisbat qo'shimchasi ta'sirida o'zargan fe'l 1 o'rinda qatnashgan*  
C) *aniq nisbatdagi fe'l 4 o'rinda qatnashgan*  
D) *o'zlik nisbatdagi fe'l 1 o'rinda qatnashgan*
14. Qaysi gapda fe'lning barcha vazifa shakllari ishtirok etgan?  
A) *Odamlar sizni qattiq hurmat qilishadi, shuning uchun sha'ningizga dog' tushiradigan ish qilmang, - dedi kuyunib.*  
B) *So'rida ko'rpachani yig'ishtiririb olib, mehmonlar kelguncha yakandoz to'shab, joy soldi.*  
C) *Orqa tomonda o'tirgan Dilbar o'zini tutolmay kula boshladi.*  
D) *Necha kundan beri qattiq esayotgan shamol tinavermagach, tog'ga chiqishni qoldirdi.*
15. Quyida berilgan gaplarning qaysilari aralash murakkab qo'shma gap sanaladi?  
1. Inson sirliligicha qolaveradi, ammo odamzod bir-birini anglab yetsagina, olam tinch, dunyo farovon bo'ladi. 2. Tabiatga bunday mehmi mening qalbinga onam solib qo'ydi va menda go'zallikni sevish, xushfe'l, xushtabiatli bo'lish, ozoda yurish kabi xislatlar uyg'ondi. 3. Havo ochiq, quyosh tuzukkina ko'tarilgan, ammo uning ham bu kun uncha ta'siri yo'q, bu kungi qora sovuq quyosh kuchini-da kesgan edi.  
A) 1, 2 B) 1, 2, 3 C) 1, 3 D) 2, 3
16. Qaysi javobda berilgan barcha so'zlar imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan?  
A) *mahbus, mahluq, mahfiy* B) *mahbus, maxluq, maxfiy* C) *mahbus, mahluq, maxfiy* D) *maxbus, maxluq, maxfiy*
17. Tinish belgilarini qo'llash bilan bog'liq xatolik mavjud bo'lmagan gapni aniqlang.  
A) *Soraxon shuncha kundan beri yetolmagan niyatga — Roziyani avvalgiday go'zal, shod ko'rish niyatiga — Sattor bir lahzada yetdi.*  
B) *Me'morning avvalo raiyat, qolaversa saltanat oldidagi, mavqeyi, Xuroson-u Movarounnahrtdagi shuhrati unga qarshi keskin chora ko'rishga yo'l bermas edi.*  
C) *Sekin unga yaqin bordim: bu manzara ham bizga yaqin-da qadr don!*  
D) *U otasi Muzaffar Farmonovning batamom aksi: dadasi yum-yumaloq, baqaloq bo'lsa bu xushqad, xushsurat.*
18. Yam-yashil o'tloqlarda dumalagan, chang ko'chalarda o'ynagan damlarimni unutmaysan qiyinalaman.  
Ushbu gapda gap bo'laklari nechta tobe bog'lanish hosil qilgan?  
A) 7ta B) 8ta C) 9ta D) 6ta
19. Qaysi gapda fe'lning fe'lga tobelanishidan hosil bo'lgan uchta holli so'z birikmasi mavjud?  
A) *Shundagina u Shavkatning boshiga yuzini bosgancha o'ksib-o'ksib yig'lab yubordi.*  
B) *Mashina peshanasiga o'rnatilgan oynaga chirsillab yomg'ir tomchilari urila boshladi.*  
C) *Bolakay baqirib gapirayotgan bu notanish amakidan qo'rqanidan yig'lab qochib ketdi.*  
D) *Anchagacha qayerda yotganini bilolmay, ko'zlarini katta-katta ochganacha shiftga tikilib qoldi.*

20. Qaysi gapda barcha aniqlovchilar yasama so'zlar bilan ifodalangan?  
 A) *Hindubek turli tillarni o'rgangan ilmi, ma'rifati, dilkash kishi edi.*  
 B) *Tiniq osmon tumanli nurga cho'mgan, to'lin oy hamma yoqni yoritir, yulduzlar siyrak ko'rinar edi.*  
 C) *Bog'dagi yumshoq xushbo'y noklar va qip-qizil olmalar ko'zingizni quvontiradi.*  
 D) *Uning chaqnoq ko'zlari, o'ychan turishi, alamli qarashi cheksiz bardoshini aks ettirib turadi.*
21. Kim bo'lsa hasadchi, yuragi qaro,  
 Ko'rmas yaxshilarga yaxshilik ravo.  
 Ushbu parchada qanday munosabatlil so'z birikma(lar)ida tobe qism ham, hokim qism ham yasama so'zlar bilan ifodalangan?  
 A) *boshqaruv* B) *bitishuv* C) *boshqaruv va bitishuv* D) *moslashuv va boshqaruv*
22. "Quyoshsiz gullar ochilmaydi, sevgisiz baxt, ayolsiz muhabbat yo'q, onasiz qahramon ham, shoir ham tug'ilmaydi. Mehri cheksiz, butun dunyoni ko'kragi bilan boqqan ayol-Onani sharaflaylik..."  
 Berilgan matnda asosi shakldoshlik xususiyatiga ega fonetik yozuv asosida yozilgan yasama so'zlar miqdori nechta?  
 A) 1ta B) 2ta C) 3ta D) 4ta
23. Berilgan she'riy parchada yasama so'zlar necha o'rinda ishtirok etgan?  
 Mulki borliq ichra bir mahal,  
 Ko'rkamgina olam yaralgan.  
 Bermoq uchun dunyoga sayqal,  
 Olam aro odam yaralgan.  
 A) 5 B) 4 C) 3 D) 2
24. Qaysi gapda 3 xil kelishik qo'shimchasi tushirib qoldirilgan?  
 A) *G'iyosiddin Jamshid... aytishicha, u... otasi bu asar... aksariyat qismi... yoddan biladilar.*  
 B) *Bugun haqiqat... yashirib yolg'on gapirgan odam ertaga nima degani... unutgani... rostini aytib qo'ya qoladi va shu bilan o'zi... o'zi beburt qiladi.*  
 C) *Bolalikdan boshlangan do'stlik odamzod... keyingi-ulg'aygan va kamol... erishgan davri... orttirgan barcha do'stlari orasida alohida o'rin tutadi.*  
 D) *Inson tarix... yaratuvchisi, ishtirokchisi va u... dunyoga keltiruvchi eng oliy xilqat ekanligi... tan olamiz.*
25. "To'rt chaqaga ham arzimagan bu qurboni zamon" deb ta'riflangan qahramon kim?  
 A) *Akbarali mingboshi ("Kecha va kunduz")*  
 B) *Yo'lchi ("Qutlug' qon")*  
 C) *Salimboyvachcha ("Qutlug' qon")*  
 D) *Eshon ("Kecha va kunduz")*
26. "Bir tup o'rik... Bodroq-bodroq bo'lib gullaganida  
 Ko'lankasi bilan do'st tutimidi", degan misralaar muallifini aniqlang.  
 A) *Muhammad Yusuf* B) *To'ra Sulaymon* C) *Mirtemir* D) *Asqad Muxtor*
27. Nasimi jonfizo bemorlarga, ey sabo, yetkur,  
 Xazon pajmurda bo'lganlarga bir obi havo yetkur,  
 Qo'y emdi biz begonani, bir oshno yetkur,  
 Gadomiz, boshlar uzra soya solsun, Humo yetkur...  
 Ushbu she'riy parcha muallifini ko'rsating.  
 A) *Zavqiy* B) *Avaz O'tar* C) *Muqimiy* D) *Furqat*
28. Janni Rodarining "Shahzoda Plombir" ertagi qaysi turkumga mansub?  
 A) *"Uchtadan oxiri bor ertaklar"*  
 B) *"Rim ertaklari"*  
 C) *"Telefondagi aytilgan ertaklar"*  
 D) *"Osmondagi to'rt"*
29. "Yolg'iz boshing uchun mehnat qilsang, o'z qorni uchun o'tlagan hayvonning biri bo'lasan. Insoniy burching uchun mehnat qilsang esa, Ollo taoloning suygan bandasi bo'lasan"  
 Ushbu hikmatli so'zlar kimning qaysi asarida uchraydi?  
 A) *Ahmad Yugnakiy, "Hibat ul-haqoyiq"*  
 B) *Alisher Navoiy, "Hayrat ul-abror"*  
 C) *Alisher Navoiy, "Mahbub ul-qulub"*  
 D) *Abay, "Nasihatar"*
30. Qoplonbek va Oymomo Tog'ay Murodning qaysi asari qahramonlari hisoblanadi?  
 A) *"Ot kishnagan oqshom"*  
 B) *"Otamdan qolgan dalalar"*  
 C) *"Oydinda yurgan odamlar"*  
 D) *"Yulduzlar mangu yonadi"*
31. "U hayotining ko'plab qiyinchiliklariga, taqdirning son-sanoqsiz sinovlariga duch keladi. To'ng'ich o'g'lining bevaqt vafoti, akasi Farhodbiyning Buxoro hukmdori Abulfayzxon qo'lida katta amaldorlardan biri bo'lishiga qaramay, qatl etilishi shunday og'ir sinovlardan edi".  
 Ushbu ma'lumotlar qaysi ijodkor hayotiga aloqador?  
 A) *Xo'janazar Huvaydo*  
 B) *Gulxaniy*  
 C) *So'fi Olloyor*  
 D) *Poshshoxo'ja Abdulvahobxo'ja o'g'li Xo'ja*
32. Mavjud urf – odatlarni buzib, qaynonasini so'ngi yo'lga kuzatgan ayol obrazi qaysi asarda mavjud?  
 A) *"Kecha va kunduz" (Cho'lpon)*  
 B) *"Ruh bilan suhbat" (S. Zunnunova)*  
 C) *"Qochoq" (S. Ahmad)*  
 D) *"Urushning so'ngi qurboni" (O'.Hoshimov)*
33. Qaysi asar turkiy tildagi ilk badiiy doston sanaladi?  
 A) *"Muhabbatnoma"* B) *"Qutadg'u bilig"* C) *"Devonu lug'otit-turk"* D) *"Qissasi Rabg'uziy"*
34. Nasr ibn Ahmad Somoniyni beixtiyor yurtiga qaytishga majbur etgan "Mo'liyoning bo'yi bu yonga kelur" deb boshlanuvchi g'azal muallifini aniqlang.  
 A) *Rudakiy* B) *Atoiy* C) *Ogahiy* D) *Firdavsiy*
35. Berilgan tarixiy asarlardan qaysi biri Ogahiy qalamiga mansub emas?  
 A) *"Zubdat ut-tavorix"* B) *"Gulshani davlat"* C) *"Ravzat us-safo"* D) *"Riyoz ud-davla"*
36. Quyidagi baytda qaysi badiiy san'at qo'llanmagan?  
 Navbahor ayyomi bo'lmish, men diyor-u yorsiz,  
 Bulbul o'lg'andek xazon fasli gul-u gulzorsiz.  
 A) *tashbeh* B) *talmeh* C) *tazod* D) *tanosub*

## BIOLOGIYA

37. Quyonlarda quloq suprasining uzunligi 2 juft polimer genlarga bog'liq. Agar quloq suprasining uzunligi 24 sm li  $A_1A_1A_2a_2$  genotipli urg'ochi quyon va quloq suprasining uzunligi 16 sm li  $a_1a_1A_2a_2$  genotipli erkak quyon bilan chatishtirilsa, avlodning necha foizini digeterozigota genotipli quyonlar tashkil qiladi?  
 A) 25 B) 75 C) 50 D) 12,5
38. Tishlarning qoramtir rangi ikkita dominant gen ta'sirida rivojlanadi. Bu genlarning biri autosomada, ikkinchidi X xromosomada joylashgan. Bu belgining autosomada joylashgan turiga ega bo'lgan erkak va jinsga birikkan turiga ega bo'lgan ayol oilasida tishlari normal bo'lgan qiz va o'g'il tug'ildi. Ushbu oilada tug'ilgan farzandlar orasidan tishlari normal o'g'il bolalarning tug'ilish ehtimolini (%) toping?  
 A) 12,5 B) 50 C) 25 D) 75
39. Odamda giperxolesterinuriya dominant belgi sifatida autosomadagi genlar ishtirokida irsiylanadi. Gomozigotalilarda kasallik ateroskleroz va terida xavfsiz o'simtalar paydo bo'lishi bilan kechadi. Geterozigotalilarda kasallik yengil o'tib, faqatgina qonda xolesterin miqdorining yuqori bo'lishi bilan xarakterlanadi. Gipertrixoz Y xromosomada joylashgan. Giperxolesterinuriyaning yengil formasi bilan kasallangan ayol o'ziga o'xshash va gipertrixoz bilan kasallangan erkakka turmushga chiqdi. Farzandlarning gipertrixoz bilan tug'ilish ehtimoligini (%) aniqlang.  
 A) 25 B) 100 C) 75 D) 50
40. DNK bo'lagi genomining ma'lum joyidan chiqib ketishi (a) va kirishi (b) qanday nomlanadi?  
 A) *a-eksiziya; b-insersiya*  
 B) *a-insersiya; b-eksiziya*  
 C) *a-deletsiya; b-duplikatsiya*  
 D) *a-insersiya; b-eksiziya*
41. O'simlik mitoxondriyasida oksidlanish jarayonida 108 molekula ATF sintezlangan bo'lsa, sitoplazmada qancha energiya (kj) issiqlik sifatida

- tarqalganligini (a) va shu vaqt davomida xloroplastda hosil bo'lgan ATF molekulasi sonini (b) aniqlang.  
A) a-360; b-3420 B) a-240; b-3420 C) a-360; b-3240 D) a-240; b-2160
42. Diploid olcha (a) va tetraploid (n=12) tamakida (b) meyoziy profaza I bosqichida xromatidalar sonini aniqlang.  
A) a-32; b-48  
B) a-64; b-96  
C) a-32; b-12  
D) a-8; b-72
43. Bir sinfga mansub o'simliklar navlarini aniqlang.  
A) Yulduz, Toshkent-1, Ulug'bek-600  
B) Zarg'aldoq, Nimrang, Samarqand-3  
C) Zarafshon, Buxoro-9, Sangzor  
D) Vatan, Sangzor, Yulduz
44. Noto'g'ri ma'lumotni aniqlang.  
A) Bug'doy o'simligi hujayrasida 4-juft xromosomada inversiya yuz berganda 14 ta xromosoma bo'ladi.  
B) Makkajo'xori o'simligida 3-va 5-juft xromosomalar tarqalmay bitta qutbga to'planishi natijasida meyoziy 1 yakunida 8 yoki 12 ta xromosomal hujayralar hosil bo'ladi.  
C) No'xat o'simligida 2-va 6-juft xromosomalar tarqalmay bir qutbga to'planishi natijasida meyoziy 1 yakunida hujayrada 9 yoki 5 ta xromosoma bo'ladi.  
D) Qalampir hujayrasida to'rt juft gomologik xromosomalar faqat bitta qutbga to'plansa, meyoziy 1 yakunida 45 yoki 51 ta xromosomal to'plam hosil bo'ladi.
45. Quyidagi hayvonlarni ularning fanidagi nomi bilan to'g'ri juftlab ko'rsatilgan javobni toping.  
1) o'txo'r kaltakesak; 2) toshbaqalar avlodi; 3) baliq kaltakesak; 4) yirtqich kaltakesak; 5) uch shohli kaltakesak; 6) ilon kaltakesak;  
a) plakoxelis; b) tritsopetops; c) tiranozavr; d) mezozavr; e) bronzozavr; f) ixtiozavr  
A) 1-e; 2-a; 3-f; 4-c; 5-b; 6-d  
B) 1-b; 2-a; 3-d; 4-e; 5-c; 6-f  
C) 1-c; 2-e; 3-f; 4-a; 5-b; 6-d  
D) 1-e; 2-d; 3-f; 4-b; 5-c; 6-a
46. Biosfera evolutsiyasining uchinchi bosqichida qanday jayaronlar sodir bo'lgan?  
1) dastlabki ko'p hujayrali organizmlar paydo bo'lishi; 2) biosfera gomeostaz holatining buzilishi; 3) qanotli hasharotlar rivojlanishi; 4) "parnik effekti" natijasida harorat ko'tarilishi; 5) qirg'oqqa yaqin joylashgan suvo'tlar tanasining tabaqalashuvi; 6) kislotali yomg'irlar yog'ishi oqibatida hosildorlikning keskin kamayib ketishi  
A) 1,5,6 B) 2,3,4 C) 2,4,6 D) 1,3,4
47. Abiotik omillarning ta'siri to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.  
a) namlik; b) topografik;  
1) odamlarda gipoksiya belgilarining paydo bo'lishi; 2) terida melanin pigmentining hosil bo'lishi; 3) hasharotlarda nafas teshiklarining klapanlar bilan bekilishi; 4) ko'pchilik cho'lda yashaydigan hayvonlarning tunda faol bo'lishi; 5) tog'larda yashovchi odamlar qonida eritrotsitlarning ko'p bo'lishi  
A) a-3,4; b-1,5 B) a-2,5; b-3,4 C) a-2,4; b-3,5 D) a-1,5; b-3,4
48. Qaysi belgilarning irsiylanishi komplementar genlarga bog'liq?  
1) piyozbosh rangining oq bo'lishi; 2) qoramollarda sutning miqdori; 3) itlarda yungning jigarrang bo'lishi; 4) tovuqlarda patning qora rangda bo'lishi; 5) xo'rozlarda gulsimon tojning irsiylanishi; 6) xoldor to'tilarda oq patning irsiylanishi; 7) xushbo'y no'xotda gultobarglarning oq bo'lishi; 8) bug'doyda donning oq rangda bo'lishi  
A) 3,4 B) 7,8 C) 5,6 D) 1,2
49. Odamning orqa miyasiga xos bo'lgan to'g'ri ma'lumotni aniqlang.  
A) Orqa miyani o'rab turuvchi pardaning ichki qismi qattiq, ichki o'rta qavaqti o'rgimchak to'rsimon, tashqi qavati yumshoq parda deyilib, o'rta va ichki parda orasida orqa miya suyuqligi bo'ladi.  
B) Orqa miya yuqori qismining dastlabki 8 ta segmentida joylashgan nerv markazlari qo'lining kafi, barmoqlar terisini va qo'lining tashqi yuzasi terisi va muskullar funksiyasini ta'minlaydi  
C) Orqa miyani ustidan o'rab turuvchi pardalarning yallig'lanishi meningit deb ataladi va bu kasallikda bemorda hushini yo'qotish, tirishish, belgilari yuzaga keladi.
- D) Orqa miyadan chiquvchi simpatik nerv tolalarining birinchi qismi umurtqa pog'onasi atrofida joylashgan nerv tugunlarida tugaydi
50. Qaysi kasalliklar nafas olish organlari kasalliklari emas?  
1) rinit; 2) faringit; 3) traxeit; 4) piyelonefrit; 5) botulizm; 6) ateroskleroz; 7) zotiljam; 8) laringit  
A) 4,5,6  
B) 1,2,3  
C) 4,7,8  
D) 4,5,7
51. Odamdagi o'mrov osti muskulining bo'yinning teri osti muskulidan farqini toping.  
1) vegetativ nerv sistemasi orqali boshqariladi; 2) joylashuv ko'ra to'sh-o'mrov so'rg'ichsmon muskul bilan bir guruhga kiradi; 3) joylashuviga ko'ra diafragma muskuli bilan bir guruhga kiradi; 4) gavdaning ko'krak muskuli hisoblanadi; 5) suyakka birikadi; 6) boshning harakatini ta'minlaydi; 7) qo'lining harakatida ishtirok etadi  
A) 1,4,5 B) 1,5 C) 2,6 D) 3,4,7
52. Quyidagi belgilar orasidan sog'lom odamning siydik qopi va siydik yo'li uchun umumiy bo'lgan belgilarni ajratib.  
1) murtak varaqasining mezodermasidan hosil bo'ladi; 2) vegetativ nerv sistemasi orqali boshqariladi; 3) 1-2 bel umurtqalari ro'parasida joylashgan; 4) muskul hujayralarida bitta yadro va kalta miofibril tolachalari bo'ladi; 5) simpatik nerv sistemasi ta'sirida muskullari bo'shshadi; 6) devorlari proprioreseptorlari joylashgan; 7) adashgan nerv ta'sirida muskullari qisqaradi  
A) 1,2,4 B) 2,3,5 C) 5,6,7 D) 3,4,6
53. Sezgi analizatorlari haqidagi noto'g'ri fikrni aniqlang.  
A) Terining derma qavatida sovuqni va siypalashni sezuvchi retseptorlar issiqni va og'riqni sezuvchi retseptorlarga nisbatan chuqurroq joylashgan.  
B) Gipermetropiya keksalarda ko'z gavhari do'ngligining ortib ketishi tufayli yuzaga keladi.  
C) Quloqning suyak labirinti bilan parda labirinti orasida perilymfa, parda labirinti ichida endolimfa suyuqligi bo'ladi.  
D) Harakat analizatorining oliy nerv markazi bosh miya katta yarimsharlari po'stlog'ining orqa markaziy egatida joylashgan.
54. Lichinkasida kipriklari bor organizmlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.  
1) jigar qurti; 2) exinakok; 3) gidra; 4) nereida; 5) oq planariya; 6) dengiz o'troq ko'p tukli chuvalchangi; 7) yomg'ir chuvalchangi  
A) 1,4 B) 5,7 C) 2,3 D) 3,6
55. Daryo qisqichbaqasi organlari ularning soni bilan juftlang.  
a) 10ta; b) 8 ta; c) 6ta; d) 4ta; e) 2ta  
1) jirak ko'zlari; 2) dum suzgichi; 3) pastki jag'lari; 4) haqiqiy yurish oyoqlari; 5) qisqichlari; 6) ikki shoxli qorinoyoqlari; 7) mo'ylovlar; 8) jag'oyoqlari; 9) yuqori jag'lari  
A) a-6; b-4; c-8; d-3,7,9; e-1,2,5  
B) a-6; b-4; c-8; d-2,3,7; e-1,5,9  
C) a-6; b-4; c-8; d-2,7,9; e-1,3,5  
D) a-6; b-4; c-8; d-3,5,9; e-1,2,7
56. Bosh skeletsizlarning bosh skeletlilardan farqini aniqlang.  
1) nerv sistemasi nerv nayidan iborat; 2) ichki skelet mavjud emas; 3) bosh va orqa miya markaziy nerv sistemasini hosil qiladi; 4) umurtqa pog'onasi rivojlanmagan; 5) qon aylanish doirasi yopiq; 6) skeleti suyak va tog'aydan iborat  
A) 1,4 B) 3,5,6 C) 2,4 D) 1,2,5
57. Ko'rshapalak haqidagi to'g'ri ma'lumotlarni belgilang.  
1) oldingi oyoqlari salamandranning oldingi oyoqlari bilan o'zaro gomologik organ; 2) o'ljasini havoda og'z bilan tutib ovlaydi; 3) ko'rgalak bilan bir sinfga mansub; 4) tuxumlaridan jish bola chiqadi  
A) 3,4 B) 2,4 C) 1,3 D) 1,2
58. Jag'larida faqat kurak va oziq tishlari mavjud hayvonlarni aniqlang.  
1) larcha; 2) ondatra; 3) norka; 4) qashqaldoq; 5) nutriya; 6) tovushqon; 7) sug'ur; 8) suqsun; 9) yumronqoziq; 10) olaqo'zan  
A) 1,3,4 B) 2,5,7 C) 5,9,10 D) 6,7,8
59. Oq po'panak va sil batsillasi uchun umumiy bo'lmagan xususiyatlarni aniqlang.  
A) Eukariot organizm, irsiy axboroti faqat sitoplazmada joylashgan.  
B) Membranasiz ikki qator lipid va oqsil molekullaridan iborat, ribosomasi

sitoplazmada translyatsiyada qatnashadi.

C) Translyatsiya jarayoni sitoplazmada kechadi, spora hosil qiladi.

D) Irsiy axboroti DNK molekulasida joylashgan, hujayrasi qobiq bilan o'ralgan.

60. Eukariot hujayraga oid to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.  
1) hujayra tarkibidagi mitoxondriya, ribosoma va yadro qo'shqvart membranaga ega; 2) sentriolalar hujayraning tayanch elementidir; 3) lizosomalarni hosil qiluvchi organoidlar membranal tuzilishga ega; 4) o'simlik hujayrasining selluloza qobig'idagi maxsus teshikchalar orqali qo'shni hujayraning endoplazmatik to'r kanalchalari o'zaro tutashadi; 5) mitoxondriyaning kristallarida ko'plab fermentlar joylashgan  
A) 2,5 B) 1,3 C) 3,4 D) 1,2
61. Qaysi jarayonlar meyoza uchun xos emas?  
1) ketma-ket sodir bo'ladigan ikkita bo'linish jarayoni; 2) to'rtta bir xil irsiy axborotga ega hujayralarning hosil bo'lishi; 3) gomologik xromosomalarning ajralib har xil hujayralarga tarqalishi; 4) gaploid to'plamli mikrosporaning bo'linishi; 5) birinchi bo'linishdan avval interfaza bosqichining bo'lmashligi; 6) xromatidalar tetradasining hosil bo'lishi  
A) 1,6 B) 2,4 C) 3,4 D) 3,5
62. Genotipik (a) va fenotipik (b) o'zgaruvchanlik bilan bog'liq hodisalarni aniqlang.  
1) crossingover natijasida genlar rekombinatsiyasi; 2) meyoza jarayonida xromosomalarning tasodifiy tarqalishi; 3) belgining reaksiya normasi doirasida o'zgarishi; 4) genlarning tuzilishi saqlangan holda ularning namoyon bo'lishining o'zgarishi; 5) urug'lanish jarayonida gametalarning tasodifan qo'shilishi.  
A) a-3; b-4,5 B) a-2,5; b-3 C) a-1,2; b-4,5 D) a-2,4; b-1,3
63. BamHI restriktazasi GGATCC nukleotidlar ketma-ketligini tanib, GG nukleotidlar orasidagi bog'larni kesadi. Maxsus sharoitda 134,3 nm uzunlikdagi DNK molekulasi BamHI restriktazasi orqali A,B,C,D,E bo'laklarga bo'lindi. Hosil bo'lgan barcha DNK bo'laklaridagi jami vodorod bog'lar soni dastlabki DNK molekulasidagi vodorod bog'lar sonidan 4% ga kam. Agar nukleotidlar orasidagi masofa 0,34 nm ekanligi ma'lum bo'lsa, dastlabki DNK molekulasi tarkibidagi nechta vodorod bog'lari A va T nukleotidlar orasida joylashgan?  
A) 480 B) 354 C) 370 D) 320
64. Zubtutum (a) va nastarin (b) ning to'pguliga xos belgilarni aniqlang.  
A) a-asosiy gulpoyasi shoxlangan; b-atrofi o'rama bargchalar bilan o'ralgan  
B) a-asosiy gulpoyasi shoxlanmagan; b-asosiy gulpoyasi shoxlangan  
C) a-shoxlanmagan gulpoyaga gullar bandsiz birikkan; b-shoxlangan gulpoyaga to'g'ri gullar yig'ilgan  
D) a-umumiy gulpoya qisqa, gullar bir tekislikda joylashgan; b-uzun gulpoyada gullar ketma-ket joylashgan
65. Nastarin qaysi jihatlari bilan tokka o'xshaydi?  
1) urug'lanishdan so'ng meva hosil qilishi; 2) gullarning qiyshiqiligi; 3) ro'vak to'pgul hosil qilishi; 4) barglarining novdada joylashuvi; 5) hayotiy shakli; 6) gulpoyasining shoxlanishi  
A) 1,3 B) 2,5 C) 4,6 D) 4,5
66. Quyidagi javoblarning qaysilaridan gullari bir xil to'pgullarda joylashgan o'simliklar juftlangan?  
1) karrak va kakra; 2) javdar va bug'doyiq; 3) arpa va sholi; 4) kavrak va kakra; 5) bo'znoq va shuvoq; 6) tol va oqqayin; 7) shashir va andiz; 8) kelinsupurgi va bo'tako'z  
A) 1,2,5,6 B) 2,4,7,8 C) 1,3,4,6 D) 2,3,5,8
67. Lolasiimonlar (1), archadoshlar (2), ituzum (3) va qoqio'tdoshlar (4) sistematik birliklarga mansub o'simliklarni aniqlang.  
A) 1-qo'ng'irbosh; 2-sharq sauri; 3-kartoshka; 4-bo'znoq  
B) 1-oq shuvoq; 2-sharq sauri; 3-baqalajon; 4-bo'yadaron  
C) 1-piyozli arpa; 2-sekvoyadendron; 3-baliqko'z; 4-kakra  
D) 1-boychechak; 2-qarag'ay; 3-qizil ituzum; 4-qoqio't
68. Evernia haqidagi noto'g'ri ma'lumotni toping.  
A) atmosfera havosi tozaligini ko'rsatuvchi mezon  
B) tuproq hosil bo'lishida ishtirok etadi  
C) poyasida xitin moddasi uchraydi  
D) zamburug' bilan bir hujayrali suvo'tining simbiozi
69. Qarag'aytoifa bo'limiga mansub barcha o'simliklar haqidagi to'g'ri ma'lumotni aniqlang.

- A) Tuxum xujayrasi urug'chili qubbalaridagi arxegoniya yetiladi  
B) Urug'chili qubbalaridagi tangachalarida 2 tadan chang donasi yetiladi  
C) Hayotiy shakli daraxt, buta va o't osimliklardan iborat bo'lib, urug'chi qubbalarida ochiq holda yetiladi  
D) Barglari och yashil tusda, ignasimon bo'lib novdada ikkita bo'lib joylashadi

70. Qirg'ovullarning yettiso, murg'ob, yapon kabi kenja turlarining paydo bo'lishi (a), tur doirasida yangi populyatsiyalarning paydo bo'lishi (b) qanday jarayonlarni aks ettiradi?  
A) a-divergensiya; b-konvergensiya  
B) a-mikroevolyutsiya; b-mikroevolyutsiya  
C) a-mikroevolyutsiya; b-makroevolyutsiya  
D) a-makroevolyutsiya; b-makroevolyutsiya
71. Bitta biogeografik viloyatda tarqalgan hayvonlar juftligi to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.  
1) alligator va iguana; 2) tasqara va kolibri; 3) kapachi va nandu; 4) skuns va shinshila; 5) orangutan va shinshila; 6) los va bizon  
A) 3,4,5 B) 1,2,5 C) 1,2,6 D) 3,5,6
72. Hind fili va Afrika filining (a), zubr va bizonning (b) kelib chiqishi qanday jarayonlar natijasi hisoblanadi?  
A) a-simpatik tur paydo bo'lish, b-simpatik tur paydo bo'lish  
B) a-allopatik tur paydo bo'lish, b-simpatik tur paydo bo'lish  
C) a-simpatik tur paydo bo'lish, b-allopatik tur paydo bo'lish  
D) a-allopatik tur paydo bo'lish, b-allopatik tur paydo bo'lish

## KIMYO

73. Berilgan kompleks birikmalardan kation kompleksni tanlang.  
A)  $[Co(NH_3)_3(NO_2)_3]$   
B)  $Ag(NH_3)_2Cl$   
C)  $K_4[Fe(CN)_6]$   
D)  $(AlOH)_3(PO_4)_2$
74. Propantriol-1,2,3 molekulasi tarkibidagi uglerod atomlarining oksidlanish darajasi yig'indisini toping.  
A) -5 B) -3 C) -4 D) -2
75. Quyidagi galogenlar qatorida qaytaruvchanlik xossasi qanday o'zgaradi?  
 $Br_2 \rightarrow Cl_2 \rightarrow I_2 \rightarrow F_2$  a) ortadi; b) kamayadi  
A) 1-b; 2-b; 3-a B) 1-b; 2-a; 3-b C) 1-a; 2-a; 3-a D) 1-b; 2-b; 3-b
76. DNK qo'sh spirali tarkibidagi nukleotidlarda 2960 ta azot atomi bor bo'lsa, nukleotid tarkibida nechta guanin bor? (nukleotidlarning 30% ini adenin tashkil etadi)  
A) 320 B) 160 C) 240 D) 180
77. 17,8 g  $\alpha$ -aminokislota 9 g amin hosil bo'lgan bo'lsa, aminokislota toping.  
A) a-amino 2-metilpropan kislotasi  
B) glitsin  
C)  $\beta$ -aminopropion kislotasi  
D) a-aminopropion kislotasi
78. 0,4 mol laktoza gidrolizlanishidan olingan glukozaning moy kislotali bijg'ishidan hosil bo'lgan mahsulotlarni to'la neytrallash uchun nechta gramm 20% li KOH sarflanadi?  
A) 280 B) 112 C) 400 D) 560
79. 90 g glukozaga kuchli oksidlovchilar bilan oksidlanganda olingan kislotani nechta gramm 20% li o'yuvchi natriy bilan ta'sirlashadi?  
A) 100 B) 300 C) 200 D) 400
80. 3-energetik pog'onasida 6 ta d-elektroni bo'lgan atomning 11,2 g namunasida nechta dona neytron bo'ladi? (Ar (atom)=56)  
A)  $24,08 \cdot 10^{23}$   
B)  $48,16 \cdot 10^{23}$   
C)  $36,12 \cdot 10^{23}$   
D)  $42,14 \cdot 10^{23}$
81. Berilgan kompleks birikmalardan neytral kompleksni tanlang.  
A)  $[Co(NH_3)_3(NO_2)_3]$   
B)  $[Ag(NH_3)_2]Cl$   
C)  $K_4[Fe(CN)_6]$   
D)  $(AlOH)_3(PO_4)_2$

82. 0,45 mol sirka kislotadan 60% unum bilan olingan xlorosirka kislotasi orqali 0,3 mol ammiak o'tkazilganda hosil bo'lgan aminosirka kislotasi miqdorini aniqlang.  
A) 1,27 B) 0,51 C) 2,31 D) 0,27
83. Qaysi alkan izomerlari sonining uning tarkibidagi uglerod va vodorod atomlari soni yig'indisiga nisbati 0,25:1 ga teng?  
A) C<sub>8</sub>H<sub>18</sub>  
B) C<sub>7</sub>H<sub>16</sub>  
C) C<sub>9</sub>H<sub>20</sub>  
D) C<sub>6</sub>H<sub>14</sub>
84. 1:2 mol nisbatda olingan Bertole tuzi va kaliy nitratdan iborat 0,3 mol aralashma katalizator ishtirokida qizdirilganda olingan gaz mis naychadan o'tkazildi. Olingan nayni to'liq eritish uchun 200 g 98% li sulfat kislotasi eritmasi sarflansa, nayning necha foizi oksidlanganini aniqlang?  
A) 50 B) 80 C) 40 D) 60
85. Oliy nerv faoliyatining normal kechishida katta ahamiyatga ega elementni aniqlang.  
A) F B) I C) Si D) Br
86. Necha gramm triakontan tarkibida 0,6·N<sub>A</sub> ta uglerod atomi bor?  
A) 8,44 B) 2,11 C) 6,33 D) 4,22
87. Ammiak sintez qilish jarayonida reaktordagi bosim 30% ga kamaydi. Boshlang'ich aralashmadagi azot bilan vodorod miqdori stexiometrik nisbatda bo'lsa, reaksiyadan keyin hosil bo'lgan gazlar aralashmasining hajmiy tarkibini aniqlang.  
A) 1/9; 2/3; 2/9  
B) 2/5; 2/5; 1/5  
C) 1/7; 3/7; 3/7  
D) 1/4; 1/4; 1/2
88. Valent elektronining kvant sonlari n=4; l=0; m<sub>l</sub>=0; m<sub>s</sub>=+1/2 bo'lgan metallning oksidi va karbonatli tuzi mo'l miqdordagi xlorid kislotada eritilganda 3,36 litr (n.sh.) gaz hosil bo'lgan bo'lsa, reaksiyadan so'ng hosil bo'lgan tuzning massasini (g) aniqlang.  
(Reaksiya uchun olingan oksid va karbonatli tuzning mol miqdorlari teng)  
A) 31,5 B) 25,1 C) 52,4 D) 44,7
89. 0,3 mol Na<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> · 10H<sub>2</sub>O va Na<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> · 8H<sub>2</sub>O aralashmasining to'liq dehidratlanishidan 2,6 mol suv hosil bo'ldi. Kristallogidratlarning mol nisbatini toping.  
A) 1:2 B) 0,5:0,25 C) 1:1 D) 2:1,5
90. Jami bog'lar soni 24 ta bo'lib, σ va π bog'lar soni ayirmasi 18 ga teng bo'lgan modda formulasini ko'rsating.  
A) Al<sub>2</sub>(SO<sub>4</sub>)<sub>3</sub>  
B) (AlOH)<sub>3</sub>(PO<sub>4</sub>)<sub>2</sub>  
C) (Al(OH)<sub>2</sub>)<sub>3</sub>PO<sub>4</sub>  
D) Al<sub>2</sub>(HPO<sub>4</sub>)<sub>3</sub>
91. A<sub>(g)</sub>+B<sub>(g)</sub>↔2C<sub>(g)</sub> sistemada boshlang'ich moddalardan 3 mol/l dan olingan. Ushbu sistemada kimyoviy muvozanat (K<sub>m</sub>=4) qaror topgandan so'ng moddalarning konsentratsiyalari yig'indisini (mol/l) aniqlang  
A) 12 B) 6 C) 10 D) 8
92. X% li eritma massasining 1/5 qismi bug'latildi. Bunda erituvchining massasi 1/4 qismiga kamaydi. Eritmaning massa ulushi 5/4 marta ortsa, X ni aniqlang.  
A) 25 B) 20 C) 30 D) 15
93. 200 g 43,1% Na<sub>2</sub>HPO<sub>4</sub> eritmasiga yetarli miqdorda 100 ml H<sub>3</sub>PO<sub>4</sub> eritmasi qo'shildi. Bunda olingan eritmadagi NaH<sub>2</sub>PO<sub>4</sub> tuzining massa ulushi Na<sub>2</sub>HPO<sub>4</sub> tuzining massa ulushidan 3 marta kam bo'ldi. Qo'shilgan H<sub>3</sub>PO<sub>4</sub> eritmasining molyarligini aniqlang.  
A) 1 B) 4 C) 2 D) 3
94. X g 40% li CaBr<sub>2</sub> eritmasini to'yintirish uchun 20 g CaBr<sub>2</sub> tuzidan qo'shish kerak. Tuzning ushbu haroratda eruvchanlik koeffitsiyenti 80 ga teng. Hosil bo'lgan to'yinagan eritmaning massa ulushini (%) hisoblang.  
A) 14,66 B) 33,3 C) 24,44 D) 44,4
95. KOH ning 0,8 M 400 ml eritmasiga 1,92 g ishqor qo'shilganda pH=14 bo'lgan eritma hosil bo'ldi. Ishqorni toping. (α=100%, hajm o'zgarishi hisobga olinmasin)  
A) NaOH
- B) Ca(OH)<sub>2</sub>  
C) RbOH  
D) LiOH
96. Metall sulfat tuzi o'z massasiga teng massali suvda eritilganda eritmadagi metal kationlarining massa ulushi 13/58 ga teng bo'ldi. Tuzni aniqlang. (α=1, gidroliz jarayoni hisobga olinmasin)  
A) Na<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>  
B) K<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>  
C) CuSO<sub>4</sub>  
D) ZnSO<sub>4</sub>
97. Sxemadagi barcha noma'lum moddalar tarkibida Cu borligi ma'lum bo'lsa, A, D va F moddalarni aniqlang.  
$$\text{CuSO}_4 \xrightarrow{\text{NaOH}} \text{A} \xrightarrow{\text{HCl}} \text{B} \xrightarrow{\text{AgNO}_3} \text{C} \xrightarrow{\text{I}^-} \text{D} \xrightarrow{\text{NH}_3, \text{I}^-} \text{E} \xrightarrow{\text{CuCl}_2} \text{F}$$
  
1) CuCl; 2) CuCl<sub>2</sub>; 3) Cu(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub>; 4) CuO; 5) Cu; 6) Cu(OH)<sub>2</sub>; 7) CuNO<sub>3</sub>; 8) CuOH  
A) 6,3,1 B) 2,4,5 C) 8,7,1 D) 6,4,1
98. Bir metal tuzining suvdagi eritmasi orqali 4 soat davomida 2,68 amper tok kuchi bilan o'tkazilsa, 8,4 g metal ajralib chiqadi. Tokka nisbatan unum 75% bo'lsa, metallning kimyoviy ekvivalentini aniqlang.  
A) 32 B) 29 C) 26 D) 28
99. Noma'lum III valentli element oksidining ekvivalent molyar massasi 12,667 (g/mol-ekv) ga teng bo'lsa, oksidning molyar massasini (g/mol) aniqlang.  
A) 102 B) 152 C) 110 D) 76
100. Bertole tuzi va kaliy nitratdan iborat 0,3 mol aralashma katalizator ishtirokida qizdirilganda olingan kislorod mis naychadan o'tkazildi. Bunda mis naychani 40% i oksidlandi. Olingan nay 200 g 98% li sulfat kislotasi to'liq erisa, boshlang'ich aralashmadagi kaliy xlorat massasini (g) aniqlang.  
A) 4,9 B) 7,55 C) 24,5 D) 12,25
101. 0,5 mol litiy va kadmiydan iborat aralashma tarkibidagi litiyning mol ulushi kadmiyning massa ulushiga teng bo'lsa, ushbu aralashmaning massasini (g) hisoblang.  
A) 14 B) 8,05 C) 24,15 D) 28
102. Bariy xlorid eritmasiga tegishli miqdorda Na<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> · 10H<sub>2</sub>O kristallogidratidan qo'shilganda 233 g cho'kma tushdi va 2,5 molyalli eritma hosil bo'ladi. Dastlabki bariy xlorid eritmasining massasini (g) aniqlang.  
A) 524 B) 628 C) 208 D) 828
103. xCaCO<sub>3</sub>=yCaCO<sub>3</sub>+zCaO+zCO<sub>2</sub> ifodada x, y, z, z koeffitsiyentlarning eng kichik butun qiymatdagi nisbatlari 2:1:1:1 bo'lsa, reaksiyaning mahsulot unumini (%) aniqlang.  
A) 50 B) 53 C) 170 D) 85
104. Hajmiy nisbatlari mos ravishda 2:5 bo'lgan 15,68 litr (n.sh) SiH<sub>4</sub> va NH<sub>3</sub> gazlar aralashmasiga atomlar soni teng bo'lguncha SiH<sub>4</sub> qo'shildi. Hosil bo'lgan gazlar aralashmasidagi NH<sub>3</sub> ning hajmiy ulushini toping.  
A) 2/9 B) 2/7 C) 5/9 D) 5/7
105. 10,96 g Ca<sub>3</sub>N<sub>2</sub> va CaH<sub>2</sub> dan iborat aralashma teng ikki qismga ajratildi. Aralashmaning 1-qismiga yetarli miqdorda suv ta'sir ettirilganda 0,16 mol gazlar ajraldi. 2- qismiga mo'l miqdorda xlorid kislotasi ta'sir ettirilganda hosil bo'ladigan CaCl<sub>2</sub> ning miqdorini (mol) hisoblang.  
A) 0,12 B) 0,04 C) 0,02 D) 0,06
106. Quyidagi tuzlar gidrolizga uchraganda neytral muhit hosil qiladiganlarini ajrating.  
1) (NH<sub>4</sub>)<sub>2</sub>CO<sub>3</sub>; 2) K<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>; 3) CH<sub>3</sub>COONH<sub>4</sub>; 4) NaNO<sub>2</sub>; 5) Cu(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub>; 6) (CH<sub>3</sub>COO)<sub>2</sub>Ca  
A) 2, 6 B) 1, 4, 5 C) 1, 3, 4 D) 1, 3
107. Alkan molekulyar massasi uning tarkibidagi uglerod atomlari massasidan (m.a.b) 8 m.a.b ga ortiq bo'lsa, alkanni aniqlang.  
A) etan B) butan C) pentan D) propan
108. Propan va pentan aralashmasi yondirilganda hosil bo'lgan CO<sub>2</sub> miqdori suvning miqdoridan 0,3 molga kam, sarflangan kislorod miqdori esa hosil bo'lgan CO<sub>2</sub> miqdoridan 0,7 mol ko'p bo'lsa, boshlang'ich aralashmadagi propanning miqdorini (mol) aniqlang.  
A) 0,2 B) 0,3 C) 0,1 D) 0,5